

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PARDAYEVA MADIXABONU XAKIMOVNA

**ABDULLA QODIRIY HAJVIY ASARLARI TILINING
LEKSIK-MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyas
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
philological sciences**

Pardayeva Madixabonu Hakimovna

Abdulla Qodiriy hajviy asarlari tilining leksik-morfologik xususiyatlari..... 5

Пардаева Мадихабону Хакимовна

Лексико-морфологические особенности языка сатирических произведений
Абдуллы Кадыри..... 27

Pardaeva Madikhabonu Khakimovna

Lexical and morphological features of the language of satirical works by
Abdullah Kadyri..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of publications..... 55

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Fil.70.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

PARDAYEVA MADIXABONU XAKIMOVNA

**ABDULLA QODIRIY HAJVIY ASARLARI TILINING
LEKSIK-MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI**

10.00.01 – O‘zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Qarshi – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida V2020.4.PhD/Fil787 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.qarshidu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ernazarova Manzura Saparboyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Pardayev Azamat Baxronovich
filologiya fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qarshi davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021. Fil.70.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "____" _____ soat ____ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi 17. Tel.: (0 375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.). Qarshi davlat universiteti 2-binosi, 202-xona.

Dissertatsiya bilan Qarshi davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 180103, Qarshi shahri, Ko'chabog' ko'chasi, 17. Tel. (0375) 225-34-13; faks: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "____" _____ kuni tarqatildi
(2023-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

G.X.Ernazarova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
filol.f.d., professor

N.E.Yuldosheva
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
filol.f.d. (DSc)

X.Jabborov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi,
filol.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo tilshunosligida tilning imkoniyatlarini ochib berishda turli an'anaviy va noan'anaviy, zamonaviy usullardan faol foydalanilmoqda. Bugungi kunda tilni sistem, pragmatik, lingvomadaniy, lingvopoetik jihatdan ochib berish ustunlik qiladi. Shunga qaramay har bir til o'zining ehtiyojiga ko'ra chuqur tahlil qilinishni taqozo qiladi. O'zbek tili rus tili ta'sirida ko'plab o'ziga xos xususiyatlarni yo'qotgan, desak xato bo'lmaydi. O'zbek tilining morfologiyasi, sintaksisi, hatto terminologiyasiga ham rus tili o'z ta'sirini o'tkazgan. Keyingi yillarda olib borilgan tilshunoslikka doir bir qator tadqiqotlar o'zbek tilining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishga qaratildi, ammo badiiy asarlar tilining leksik-morfologik, grammatik xususiyatlarini chuqur o'rganish dolzarb masalalardan sanaladi.

Jahonda badiiy matnlarni lingvistik tadqiq etish orqali tilning tabiatini o'rganishga doir tadqiqotlar ko'p, zero, har qanday til badiiy matnlarda o'zining bor imkoniyatlarini, ma'no qirralarini namoyon etadi. XX asr boshlarida yaratilgan asarlarning lisoniy tadqiqi tillarning o'sha davrdagi holati, ma'no taraqqiyoti haqida ma'lumot beradi. Badiiy asarlar, jumladan, nasriy matnlarda har qanday tilning tadrijiy taraqqiyoti aks etib turadi. Keyingi yillarda tilshunoslikda matnlar kognitiv-pragmatik, stilistik, lingvo-pragmatik, sotsiolingvistik jihatdan keng o'rganilmoqda. Shuningdek, badiiy matnlarni lingvistik aspektida, grammatik birliklarning kontekstdagi imkoniyatlari nutqtai nazaridan ham tadqiq etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbek tilshunosligida ham nasriy matnlardagi grammatik vositalarning lisoniy imkoniyatlari keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, Abdulla Qodiriy o'zbek milliy romanchiligiga asos solgan bo'lsa-da uning hajviy asarlari ham boshqalarga o'xshamaydigan o'ziga xos bo'lgan leksik-morfologik xususiyatlarga ega nasriy asarlardir. Qodiriy asarlari matnida qo'llanilgan lisoniy birliklar bir-biridan farq qilishi tabiiy. Leksemalarning ma'nodoshlik qatoridan har bir asarga boshqa-boshqa so'zlar, badiiy tasviriy vositalar tanlab olinadi, hajviy asarlarda ko'proq salbiy bo'yoqdor so'zlar qo'llanilishi ma'lum. Muloqotda qo'llanilgan birliklar, fonetik, morfologik, sintaktik jihatdan sezilarli farq qiladi. Jadidlar davri nasriy asarlari matnlarning morfologik xususiyatlari ham yetarli tadqiq qilinmagan, o'zbek tilining fonetik, morfologik, sintaktik birliklarining hajviy matndagi o'ziga xos ma'no taraqqiyoti alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Abdulla Qodiriy o'z asarlari bilan nafaqat o'zbek adabiyoti, jurnalistikasi, shuningdek, o'zbek tili grammatikasining takomillashishiga ham katta hissa qo'shgan yozuvchi hisoblanadi. Shu ma'noda, yozuvchining hajviy ruhda yaratilgan asarlarini leksik-morfologik aspektida tadqiq etish dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida",

2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘limni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda lisoniy birliklarni uslubiy¹, lingvopoetik² va kognitiv-pragmatik aspektlarda ilmiy tekshirish, matn tilshunosligi, xususan, badiiy matnlarda lisoniy imkoniyatlarning voqelanishini tadqiq etishga alohida e‘tibor berilmoqda.³ Jumladan, badiiy va publitsistik

¹Шомақсудов А. Муқимий сатираларининг тили. – Тошкент, 1970. Қўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик новаторлиги: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1975. Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада: автореф. дисс....канд.филол.наук. – Тошкент, 1979. Абдиев Э. Язык и стиль драм Камила Яшина: автореф. дисс....канд.филол.наук. – Тошкент, 1982. Чориев Т. Садриддин Айний публицистик асарларининг тили ва услуби (лексика ва фразеология):филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Самарқанд, 2001. Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: филол.фан.номз. ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2004. Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000 ва б. Қўчқорова М. Абдулла Қаҳҳор адабий-танқидий публицистикасининг мавзувий таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – № 2.

² Махмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. – № 4. Муҳаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2004. Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр». – Ташкент, 1982. Йўлдошев М.М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

³ Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989. – 151 с. Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. – М.: Русский язык, 1988. Назарова О. О языке произведений Хамзы Хақимзаде Ниязи: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Тошкент, 1944. Рахматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в языке Алишер Навои: автореф. дисс....канд.филол.наук. – Тошкент, 1965. Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: филол.фан.докт. ...дисс. – Тошкент, 1969. Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1967. Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Тошкент, 1968. Шомақсудов А. Муқимий сатираларининг тили. – Тошкент, 1970. Чарыев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Г.Гуляма: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1972. Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы «Фархад и Ширин»: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Тошкент, 1973. Ярыев Б. Язык поэзии Максуда Шайхзаде: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1979. Каримов С. Язык и стиль произведений Зулфии: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1983. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: филол.фан.докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1990. Абулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик қатламлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадий тил маҳорати: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2001. Рахматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида чун боғловчили гапларнинг синтактик хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006 ва б.

matnlar tahliliga doir T.Jumayev, Z.Xolmanova, R.Normurodov, Y.Sayidov, F.Babadjanov, S.Boymirzayeva, M.Tojiboyev, A.Xalikov, A.Xasanov, S.Normamatov, S.Maxsumxonov, S.Maxsumova⁴, X.Xamrayeva, N.Qazaqova, O'.Qobilov, F.Mahmudova⁵ va boshqalarning ishlarida badiiy asar tilini o'rganish bilan bog'liq ilmiy-nazariy muammolar to'g'risida so'z yuritilgan.

Shu bilan birga Abdulla Qodiriy asarlari tilining leksik, morfologik, sintaktik va boshqa jihatlarini xususida muayyan tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, X.Qahharova⁶, Z.Choriyeva⁷, L.Jalalova⁸, X.Kadirova⁹, A.Qahramonov¹⁰, S.Ziyotova¹¹, E.Abdurazzoqov¹² kabilarning tadqiqot ishlari hamda O'.Lafasov¹³ va M.Abdiyevlar¹⁴ning Abdulla Qodiriy asarlari tiliga bag'ishlangan turkum maqolalari ham biz tanlagan mavzu doirasidagi muhim tadqiqotlardan hisoblanadi.

Abdulla Qodiriyning hajviy asarlarida til birliklarining nutqiy vaziyat bilan bog'liq holda turli ma'no qirralarini ifodalashi, matndagi leksik-grammatik vositalarning ma'no taraqqiyoti, ayniqsa, yordamchi so'z turkumlarining

⁴ Махсумхонов С. Абдулла Қодирий ижодида ҳажвий характер муаммоси: (кичик насрий асарлари мисолида): дис. филология фан. номзоди. – Тошкент, 1997. – 156 б.

⁵ Жумаев Т. Умар Боқий асарларининг лисоний хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 24 б.; Холманова З. “Шайбонийхон” дostonи лексикаси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 25 б.; Холманова З. “Бобурнома” лексикаси тадқиқи: Филол. фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 52 б.; Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2000. – 25 б.; Сайидов Ё. Фитрат бадий асарлари лексикаси: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2001. – 24 б.; Бабаджанов Ф. Ўзбек жадид драмаларининг лисоний хусусиятлари (Беҳбудий ва Авлоний драмалари асосида): Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Самарқанд, 2002. – 23 б.; Тожибоев М. Муҳаммад Шайбоний девони тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2004. – 24 б.; Халиков А. “Тўрўғелининг туғилиши” дostonи тилининг лексик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2009. – 24 б.; Хасанов А. Абдулла Қаҳҳор ҳикоялари тилининг бадийлигини таъминловчи лексик-стилистик воситалар: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 26 б.; Нормаматов С. Абдулла Авлоний шеърининг лексикасининг маъновий-усlubий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2011. – 25 б.; Хамраева Х. Озод Шарафидинов публицистикасининг тили ва услуби: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2012. – 27 б.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2010. – 321 б.; Махсумова С. Э.Воҳидов асарларида коннотативликнинг ифодаланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2012. – 150 б.; Қазақова Н. Ғафур Ғулум насрий асарларининг прагматик тадқиқи: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Наманган, 2019. – 140 б.; Қобилов Ў. Тоғай Мурод қиссаларининг лингвопрагматик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. автореф. – Самарқанд, 2022. – 53 б.; Маҳмудова Ф. Саид Аҳмад ҳажвий асарларида лисоний имкониятларнинг нутқий воқеланиши: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) ... дисс. – Қарши, 2022. – 142 б. ва бошқалар.

⁶ Каҳҳарова Х. Фразеология Абдулла Кадыри: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1985. – Б. 28.

⁷ Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 2006. – Б. 24.

⁸ Жалалова Л. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2007. – Б. 122.

⁹ Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012. – Б. 126.

¹⁰ Қаҳрамонов А. Абдулла Қодирийнинг “Меҳробдан чаён” романи поэтикаси. Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2000. – Б. 136.

¹¹ Зиётова С. “Меҳробдан чаён” асари лексикаси: Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2022. – Б. 154.

¹² Abdurazzoqov E. Abdulla Qodiriy romanlari tilining o'ziga xos grammatik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa dok. (PhD). diss. – Namangan: 2023. – Б. 131.

¹³ Лафасов Ў. Қодирийнинг изоҳловчиларни қўллаш маҳорати // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2006. – №3. – Б. 56.

¹⁴ Абдиев М. Абдулла Қодирий ва ўзбек адабий тили. // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент: – №12. – Б. 29.

ma'nodoshligi, shakldoshlik hosil qilishining sabab va oqibatlarini monografik holda ilmiy tadqiq etilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu tadqiqot Navoiy davlat pedagogika institutining "O'zbek tilshunosligining nazariy va amaliy masalalari" mavzusidagi tadqiqot rejasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abdulla Qodiriy hajviy asarlari tilining leksik-morfologik xususiyatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari:

Abdulla Qodiriy asarlari tilining o'rganilishiga doir adabiyotlarni tahlil qilish, fikrlarni umumlashtirish va munosabat bildirish;

Abdulla Qodiriy hajviy asarlari matnini leksik-morfologik tadqiq qilish, matndagi so'zlarning ko'chma ma'no ifodalash qirralarini o'rganish, denotativ va konnotativ ma'no nozikliklarini aniqlash;

mustaqil va yordamchi so'z turkumlarining, ayniqsa, yuklamalarning, undov va modal so'zlarning hajviy matnlardagi ifoda imkoniyatlarini, ma'no qirralari, ma'nodoshlik va shakldoshlik hodisalarining sabablarini aniqlash;

hajviy matnlar tahlili natijasida olingan xulosalarni umumlashtirish, tizimli tadqiq etish natijalari asosida zaruriy xulosalar qilish, kerakli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

hajviy asarlarning jozibadorligini, ta'sirchanligini ta'minlovchi lisoniy vositalarni saralash va ularning o'tgan davr mobaynida qanday o'zgarishlarga uchraganini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti Abdulla Qodiriyning "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan", "Toshpo'lat tajang nima deydi" nomli hajviy to'plamlari, felyetonlarida leksik-morfologik birliklar hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti Abdulla Qodiriy hajviy asarlari tilining leksik-morfologik xususiyatlari va ularning o'ziga xos grammatik jihatlarini tadqiq etish.

Tadqiqotning usullari hajviy matnlarni tahlil qilish jarayonida qiyosiy tahlil, zidlash, tasniflash, kontekstual, struktural tahlil kabi bir qator usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abdulla Qodiriy hajviy asarlari matndagi salbiy-kinoyaviy ma'no ifodalovchi lisoniy vositalarning nutqiy voqelanish darajasi aniqlanib, ma'no nozikliklari, badiiy tasvir vositalarining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari ochib berilgan;

hajviy matnlarda mustaqil so'z turkumlarining ishtirok etish darajasi, yordamchi so'z turkumlarining, ayniqsa, yuklamalarning, undov va modal so'zlarning hajviy-kinoyaviy ma'no ifodalash imkoniyatlari aniqlangan;

o'zbek tili leksikasida hajviy-kinoyaviy ma'no taraqqiyoti, uni ifodalovchi leksik-grammatik birliklar tasniflanib, maxsus leksik vositalarning nutq ta'sirchanligi, aniqligi va o'ziga xosligini ta'minlashdagi roli, ularning badiiy nutq jarayonidagi funksional xususiyatlari dalillangan;

Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida qaysi leksik-morfologik birliklar hajviy-kinoyaviy ma'no qirralarining yaratilishida faol ishtirok etishi dalillanib, hajviy

asarlari nutqida ot soʻz turkumi yumorni taʼminlovchi vosita sifatida ot oʻrnida varvarizm elementlarining qoʻllanilishi, otlarning lugʻaviy shakllari uslubiy maʼno ifodalashi, grammatik kategoriyalarida uslubiy maʼnoning mujassamligi kabi xususiyatlarni namoyon etishi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida boshqa maʼno koʻchish turlari bilan baravar kinoyalar ham qoʻllanilgani asoslangan;

ruscha soʻzlardan muallif ataylab, zarur oʻrinlarda maxsus foydalangani, oʻz davrida insonlarning tilga, dinga, eʼtiqodga boʻlgan munosabatlarini roʻy-rost koʻrsatish maqsadida, hatto aksariyat oʻzlashma soʻzlarning xalq tilidagi talaffuz variantlarini qoʻllagani aniqlangan;

hajviy, badiiy matnlar orqali tilning asosini tashkil etuvchi mustaqil soʻz turkumlarining bir asr oldingi va hozirgi morfologik holatidagi oʻzgarishlari koʻrsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qoʻllanilgan tadqiqot usullari va ilmiy-nazariy maʼlumotlarning rasmiy manbalarga aloqadorligi, keltirilgan tahlil hamda tajriba-sinov ishlari samaradorligi matematik statistika metodlari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oʻzbek tilshunosligini oʻrganishda, morfologiyaga oid tadqiqotlarni takomillashtirishda, grammatik vositalarning tildagi oʻrnini belgilashda muhim nazariy ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur dissertatsiyada aks etgan nazariy qarashlar shu yoʻnalishdagi yangi tadqiqotlar uchun manba sifatida xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati darsliklar, oʻquv qoʻllanmalar yaratishda hamda maʼruza matnlari tayyorlashda manba boʻla olishi, oliy oʻquv yurtlarining filologiya fakultetlarida “Tilshunoslikka kirish” “Hozirgi oʻzbek adabiy tili” fanlaridan maʼruza matnlari tuzishda material boʻlib xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Abdulla Qodiriy hajviy asarlari tilining leksik-morfologik xususiyatlari mavzusidagi tadqiqotlar asosida:

Abdulla Qodiriy hajviy asarlari matndagi salbiy-kinoyaviy maʼno ifodalovchi lisoniy vositalarning nutqiy voqelanish darajasi aniqlanib, maʼno nozikliklari, badiiy tasvir vositalarining leksik-semantik va stilistik xususiyatlari ochib berilganiga doir xulosalaridan Oʻzbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialida bajarilgan FZ-2016-0908165532 raqamli “Qoraqalpoq tilining yangi alfaviti va imlo qoidalariga muvofiq ona tili va adabiyotini rivojlantirish metodikasi” mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialining 2022-yil 8-avgustdagi 187-son maʼlumotnomasi). Natijada Abdulla Qodiriy hajviy asarlari tilining leksik-morfologik xususiyatlarini oʻrganishda ilmiy-nazariy faktlar bilan boyitish imkonini bergan;

hajviy matnlarda mustaqil soʻz turkumlarining ishtirok etish darajasi, yordamchi soʻz turkumlarining, ayniqsa, yuklamalarning, undov va modal

soʻzlarning hajviy-kinoyaviy maʼno ifodalash imkoniyatlari aniqlanganiga oid xulosalaridan Oʻzbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialida bajarilgan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uygʻunligi asosida maʼnaviy-axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Oʻzbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpogʻiston filialining 2022-yil 8-avgustdagi 188-son maʼlumotnomasi). Natijada Abdulla Qodiriy hajviy asarlari tilining leksik-morfologik xususiyatlarini oʻrganishda ilmiy-nazariy faktlar bilan boyitish imkonini bergan;

Abdulla Qodiriy hajviy asarlarining matni leksik-morfologik tadqiqi, matndagi salbiy maʼnoning koʻchish va ifodalanish sabablari, hajviy matnlarda mustaqil soʻz turkumlarining ishtirok etish darajasi, yordamchi soʻz turkumlarining, ayniqsa, yuklamalarning, undov va modal soʻzlarning hajviy maʼno ifodalash imkoniyatlari, hajviy asarlar tahlili asosida oʻzbek tili leksikasida salbiy maʼno taraqqiyoti, uni ifodalovchi grammatik birliklar, Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida leksik-morfologik birliklardan aynan qaysi biri hajv yaratilishida faol qoʻllanishiga doir fikrlardan Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining “Adabiy muhit”, “Assalom yangi kun” hamda “Diyor 24” axborot informatsion dasturlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 28-iyuldagi 01-02/119-son maʼlumotnomasi). Natijada ushbu dastur uchun tayyorlangan materiallar mazmun jihatidan takomillashgan, ilmiy dalillar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari boʻyicha 8 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferentsiyalarida maʼruza qilingan va aprobatsiyadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 22 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan, 1 ta elektron qoʻllanma, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika hamda 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Umumiy hajmi 117 bet.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, olingan natijalarning ishonchliligi, ishning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning birinchi bobi “**Abdulla Qodiriy hajviy asarlarining leksik xususiyatlari**” deb nomlanadi. Uning birinchi boʻlimida “**Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida sarlavha va taxallusni ifodalovchi leksemalar tahlili**”ga eʼtibor qaratiladi. Oʻzbek tilshunosligida mustaqillik yillarida til vositalarini kontekst bilan bogʻlab, xususan, nasriy va sheʼriy matnlar asosida oʻrganish, lisoniy

birliklarning stilistik, semantik, lingvopoetik, shuningdek, ma'lum darajada leksik-grammatik imkoniyatlarini aniqlashga doir tadqiqotlar amalga oshirildi.

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallifning badiiy niyatiga ko'ra erkin jamlay oladigan, tinglovchi yoki o'quvchiga estetik zavq berish, ta'sir etish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalik, tushunarlik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinavermaydi¹⁵.

Jumladan, L.Djalalovanning Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanining lingvistik tadqiqi¹⁶ hamda X.Kadirovanning "Abdulla Qodiriyning evfemizm va disfemizmdan foydalanish mahorati"¹⁷ni aniqlashga doir tadqiqotlari biz tanlagan mavzu doirasida bajarilgan muhim ishlardan hisoblanadi. X.Kadirova Abdulla Qodiriy asarlaridagi evfemik ma'noli birliklarni mavzuviy guruhlariga bo'ladi. Adib asarlarida qo'llangan evfemizmlar, miqdor jihatidan rang-barang bo'lish bilan birga, mavzuviy jihatdan ham xilma-xil ekanligini ta'kidlab, ularni tasniflaydi.

F.Mahmudova Said Ahmad hajviy asarlarida lisoniy imkoniyatlarning nutqiy voqelanishini o'rganadi. Xususan, hajviy asarlar badiiyligini ta'minlab beruvchi leksik-morfologik birliklarni, Said Ahmadning til imkoniyatlaridan foydalanish, so'z tanlash va qo'llash mahorati, morfologik vositalarning hajviy matndagi ahamiyati, mustaqil va yordamchi so'z turkumlarining ishtiroki, yuklama va undovlarning nutqiy imkoniyatlarini aniqlashga harakat qilgan¹⁸.

Til adabiyotning ifoda quroli sifatida ijodkorning maqsadini ifodalab beradi. Lisoniy birliklar fikrni bayon qilish uchun katta imkoniyat hisoblanadi, shuning uchun har bir ijodkor undan o'ziga xos tarzda foydalanadi. Abdulla Qodiriy ham tildan foydalanishda o'ziga xos uslubga ega ijodkordir. Uning romanlari tili bilan hajviy ruhda yozilgan asarlari tili o'rtasida katta tafovut bor. Insonning ruhiy poklanishi va qalban ulg'ayishida adabiyotning roli katta, bu esa til orqali amalga oshadi. Ijodkorlarning tildan foydalanish mahorati biri ikkinchisiga o'xshamaydi, shu ma'noda, Abdulla Qodiriy ijodiy merosini o'rganish barchani birdek qiziqtiradi, bizningcha. Alohida ta'kidlash kerakki, Abdulla Qodiriy yozuvchi sifatida ilk bor elga tanitgan asarlar bu – uning hajviyalari, aniqrog'i, "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" va "Toshpo'lat tajang nima deydi?" hajviy asarlari bo'ldi.

Adib "Kalvak Maxzumning xotira daftaridan" hikoyasida haqiqiy hayotdan butunlay uzilgan, xurofotdan boshqa narsani ko'ra olmaydigan mahalla masjidi imomi Kalvakning kulgili sarguzashtlari, tug'ilishidan boshlab boshidan kechirgan

¹⁵ Йўлдошев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Тошкент: Фан. 2008. – Б. 88.

¹⁶ Джалалова Л. Абдулла Қодирийнинг "Ўткан кунлар" романининг лингвистик тадқиқи: Филол. фан. номз... дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.

¹⁷ Кадирова Х. Абдулла Қодирийнинг эвфемизм ва дисфемизмдан фойдаланиш маҳорати: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 2012. – 26 б.

¹⁸ Маҳмудова Ф. Саид Аҳмад ҳажвий асарларида лисоний имкониятларнинг нутқий воқеланиши Филол. фан. фал.д-ри... дисс. автореф. – Қарши, 2022. – 26 б.

voqea-hodisalar o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda nihoyatda ta'sirli hikoya qilinadi. Abdulla Qodiriyning yirik asarlari to'liq yetib borgunga qadar ham Julqunboy nomi xalq orasida mashhur bo'lgan. Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, turli nashrlarda har xil imzolar bilan yozilgan birorta asar yo'qki, unda kulgu, tanqid va yo bittagina bo'lsa-da, o'tkir so'z, qochirim ibora bo'lmasa. Qodiriygagina xos nodir jumlar, tesha tegmagan iboralar, maqol va matallar bu jajji asarlarga yanada jozibadorlik bag'ishlagan. Muhimi shuki, boshqalar tilda qo'pol, uyatsiz bo'lib yangraydigan so'kish va haqorat so'zlari ham Ovsar yoki Dumbul, Kalvak felyetonlarida o'zining dag'al ma'nosini biroz o'zgartiradi, o'quvchi qulog'iga yoqimli eshitiladi. Masalan, yozuvchi bir felyetonida o'z qahramonini "qornini yorg'anda alif o'rniga loaqal kaltak chiqmayturg'an dardisar" deb ta'riflaydi. Uning besavod bir johil ekanligini oddiy so'z bilan tasvirlab bo'lmas edi.

Hatto Abdulla Qodiriyning aksariyat hajviyalarning nomi – sarlavhasi ham kishida kulgu paydo qiladi. Masalan, "Diyori bakr" bo'limiga kiruvchi "Dumbasi tushib qolgan emish", "Tilanchilik yoxud yengil kasb", "Sho'x baytal", "Hoy, yer yutkur", "Og'zingga qarab gapir!", "Ay, xuday urganlar", "Echkining oti Abdukarim", "Shallaqi", "Dardisar", "Ibi, ahmaq bo'lingchi" kabi kichik asarlar o'z nomi bilan jamiyatning katta, zalvorli muammolari, mavjud illatlarni fosh etadi. Maqolalarning nomidan ham ko'rinib turibdiki, hajviyalarda o'zbek tili leksikasining salbiy, kinoyaviy, tagma'no ifodalovchi ta'siriy-bo'yoqdor so'zlaridan unumli foydalanilgan. "G'idi-bidi gaplar" hajviyasi. Unda bir so'fi haqida: "Ko'zining yoshidan soqolig'a marvarid munchoq osibdir", degan boshqalarda uchramaydigan jumla mavjud. Nomlanishi oddiy bo'lgan hajviyalarida ham ichakuzdi gaplar ko'plab topiladi. "Olti yillik bazm" maqolasida esa, shunday yozadi: "To'rt tomong'a yugurib tili bir yarim qarich osilg'an; bir ko'zi Mag'ribda, bir ko'zi Mashriqda; serharakatu bebarakat..."

Abdulla Qodiriy madrasada o'qigan, ham rus-tuzem maktabida ham ta'lim olgani bois, arab, fors va rus tillarini yaxshi bilar edi, ammo u, avvalo, o'z ona tilining bor go'zalligi-yu jozibasini nozik jihatlarigacha his qila olardi. Shuning uchun so'z qo'llash, jumla tuzish borasida usta so'z san'atkori deyish mumkin. Abdulla Qodiriy asarlarining ko'pchilikka manzur bo'lishi va uning xalq mulkiga aylanishida maqol va matallarning ham o'rni beqiyos. "It suyak chaynamasa, tishi qichiydir" maqoli – "O'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'yimas" maqolasida keltirilgan bo'lib bu ham matnga ta'sirchan hajviy ruh berishga xizmat qilmoqda. Hamma vaziyatlarda ham qo'llab bo'lmaydigan, ko'proq xalq tilida faol maqollarni o'z hajviyalarida ustalik bilan ishlatadi. "Biz kim va nimalardan qo'rqamiz?" maqolasida "Ishtonsizning cho'pdan xadugi bor", deydi. Muhim jihati shuki, sarlavha bilan maqol o'rtasidagi ma'no nihoyatda uyg'un. Jumladan, "Osh tegsa – to'y, tegmasa, tomosha", "Avatiga chavati, misqozonga loytuvoq", "Eshagiga yarasha tushovi" – "Kelinni kelganda ko'r, sepini yoyg'anda ko'r" maqolalarida bu jihatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Abdulla Qodiriy hajviyalarini o'qimasdanoq sarlavhasidan kulgu boshlanadi, o'qishga kirishilsa, tesha tegmagan maqol, matal,

ibora va o‘zi tomonidan to‘qilgan quyma o‘xshatishlar insonda kulgu uyg‘otadi. Bularni jadvalda ham quyidagicha ifodalash mumkin:

1.1.1-jadval

№	Hajviyalarining nomlari	Hajviyadagi maqol va iboralar
1	“Dumbasi tushib qolgan emish”	“Ishtonsizning cho‘pdan xadugi bor”.
2	“Tilanchilik yoxud yengil kasb”	“Osh tegsa – to‘y, tegmasa, tomosha”
3	“Sho‘x baytal”	“Ko‘z bo‘lmasa, qoziqning o‘rni”
4	“Hoy, yer yutkur”	“Miya bo‘lmasa, shaloq arava ham miyaga hisoblanur emish”
5	“Og‘zingga qarab gapir!”	“Bordan yuqar, yo‘qdan nima chiqar?”
6	“Ay, xuday urganlar”	“Eshagiga yarasha tushovi” – “Kelinni kelganda ko‘r, sepini yoyg‘anda ko‘r”
7	“Echkining oti Abdukarim”	“It suyak chaynamasa, tishi qichiydir”
8	“Shallaqi”	“Ko‘zining yoshidan soqolig‘a marvarid munchoq osibdir”
9	“Dardisar”	“Qornini yorg‘anda alif o‘rniga loaqal kaltak chiqmayturg‘an dardisar”
10	“Ibi, ahmaq bo‘llingchi”	“To‘rt tomong‘a yugurib tili bir yarim qarich osilg‘an; bir ko‘zi Mag‘ribda, bir ko‘zi Mashriqda; serharakat-u bebarakat...”

Endi xalq tilini ham ma‘lum ma‘noda boyitishga ijodkorlar ham o‘z hissalarini qo‘shib keladi. Yoki biroz ijodiy yondashadi. “Ko‘z bo‘lmasa, qoziqning o‘rni”, “Miya bo‘lmasa, shaloq arava ham miyaga hisoblanur emish”, “Quvondiq sassiq o‘z aybini bila qolsa, yuragi yorilib o‘lar ekan”, “Bordan yuqar, yo‘qdan nima chiqar?” va boshqalar. Bo‘lar-bo‘lmas mavzularni qalamga olaverish, o‘zining iborasi bilan aytganda, “Har kimga o‘xshab bekorga kuchana berish” adib maslagiga yot bir ish edi, lekin millat sha‘ni, yurt obro‘si kabi masalalarda u sovuqqon yoxud, menga baribir, qabilida loqayd va beparvo bo‘lmagan”.

Ikkinchi bo‘limda **“Abdulla Qodiriy hajviy asarlari leksikasida kinoya va boshqa ma‘no ko‘chish hodisalari”** xususida so‘z boradi. Kinoya badiiy tasviriy vosita, hamda lingivistikada ma‘no ko‘chishining bir turi sifatida ham o‘rganiladi. Jumladan, Abdulla Qodiriyning hajviy yo‘nalishda yozilgan asarlarida kinoyadan ham unumli foydalanilgan.

“Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” asarida Kalvak Maxzum – go‘yo taraqqiyot dushmani. Har qanday ijobiy o‘zgarishlarga qarshi bir odam. Uni jamiyat allaqachon chiqindi sifatida uloqtirib tashlagan. Adib hajviy asarlarida xarakter yaratish uchun monologik nutqning tashqi – ovozli va ichki – ovozsiz shakllaridan g‘oyat unumli foydalanishi bilan e‘tiborni tortadi. Yozuvchi asar ta‘sirchanligini oshirish maqsadida qahramonlar nutqini monolog asosida ifodalashga harakat qiladi. Monolog samarali nutq ko‘rinishlaridan biri bo‘lib, tor ma‘noda olganda, badiiy asarda ishtirok etuvchi qahramonlardan birining o‘z-o‘ziga, suhbatdoshiga yoki ommaga qaratilgan nutqidir.

“Kalvak Maxzumning xotira daftaridan” nomli hajviy hikoyadan olingan quyidagi parchada soʻzlovchining ruhiy holati va tinglovchining soʻzlovchiga munosabati ekspressiv-boʻyoqdor kinoya soʻzlar vositasida taʼsirli ifodalab berilgan: “*Ey boshi boʻsh “**dono**”lar, ey qovoq kiygan dindoshlar, voy mumulmoni komillar! Zamona oxir boʻldi, koʻb behuda ishlar chiqdi. Sharorat peshalarning ishlari avj olib bizningdek faqirlar xor boʻldi. Kiyimlar qisqarib, sochlar uzaydi; erkaklar xotun, xotunlar erkak qiyofasiga kirdilar. Barchadan aql ketdi; ulamogʻa hurmat, yoshlarga shafqat, oʻgʻlonlarga muhabbat yoʻq! Bas, bularning barchasi oxir zamon alomati boʻlmay nima boʻlsun?!*”¹⁹ Qahramon tilidan bayon etilayotgan bu tashqi – ovozli monolog orqali Kalvak Maxzum jamiyatdagi oʻzgarishlarni, yangiliklarni toʻgʻri qabul qila olmay, oʻzining kaltabinligi, tuban qarashlari bilan oʻquvchini oʻziga jalb qiladi.

Hajviyalarda ichki (ovoqsiz) monologlarning ham aksariyati Kalvak Maxzunga tegishli boʻlib, ular orqali qahramonning qalb daftari ochiladi, hali oʻquvchiga aniq boʻlmagan hodisalarning kichik bir sahifasi yoritiladi. Masalan: “...haligi “**badbaxt**”ning ogʻzidan “Assalomu alaykum” chiqib qolmasunmi? – boshda “**Mazaq qildiyov bu kofir!**” deb oʻyladimda, menga qarab kelayotgani uchun “**kofirning salomiga alik joyizmi, yoʻqmi?**” degan shubhada goldim”²⁰.

Koʻrinadiki, Kalvak Maxzumning miyasida charx urayotgan notinch oʻylar, fikrlar muallif tomonidan unga xos kinoya soʻzlar orqali ifodalab berilyapti. Ajratib koʻrsatilgan lisoniy birliklar kinoyaviy xarakterga ega. Bu ovoqsiz monologda Kalvak xarakteriga xos bir qancha fazilat va illatlar oʻz ifodasini topgan. Uning maʼnaviy dunyoqarashi qashshoq ekanligi ochib beriladi.

“Toshpoʻlat tajang nima deydi?” asarining qahramoni Toshpoʻlat xarakteri ham ziddiyatli, kinoya bilan ifodalangan. Uning tabiatida koʻp nobop jihatlar mavjud. U bolaligida yaxshi tarbiya koʻrmagan, maktabda yolchitib bilim olmagan, omadsiz odam. U gunoh ishlardan – nashavandlik, qimorbozlik, bezorilikdan ham toymaydi. Maʼrifatsizlik tufayli u koʻp hollarda oddiy turmush chigalliklarini yecholmay, hayotdagi oʻzgarishlar, yangiliklar mohiyatini anglab yetolmay qiynaladi, kulgili, tang ahvolga tushib qoladi. Lekin uning soʻzlari juda balandparvoz, chapani va qimorbozlarning siyqasi chiqqan frazeologizmlarini, jargon soʻzlarni koʻp ishlatadi: “*Nima, bermasam meni ostirarmidi shu **hezalaklaring**?! “**Sattor**” bir tiyin bersam*”. “*Uch yuz oltmish uch tomirim junbushka kelib turgʻon paytda haligi choldevorni ham “**gardkam!**”*”²¹ Xususan, soliq qogʻozining, umuman, soliq siyosatining maʼnisiga tushunolmay dovdirashi, babaq xoʻrozini quvib maktabga kirib qolishi, u yerdagi yangicha taʼlim-tarbiya, oʻquvchilar haqida oʻzicha badbin xayollarga borishi – shu kabi oʻy-xayollari, bemaʼni xatti-harakatlari bilan chindan ham oʻz-oʻzini fosh etadi. Toshpoʻlat muallif taʼriflaganday, ishsiz, biri ikki boʻlmagan va shu faqirlik orqasida yomon yoʻllarga kirib qolib, tajanglangan chapani kishidir.

¹⁹ Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 192.

²⁰ Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 192.

²¹ Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 248.

№	Hajviyalar matnida qo‘llangan kesatiq va kinoyalar	Hajviyalar matnida qo‘llangan kesatiq va kinoyalar
1.	“Nima, bermasam meni ostirarmidi shu hezalaklaring? ”	“Daryoni ko‘pruksiz ko‘rganda ijrg‘amig‘a kelturmay cherigini suvg‘a bosib odamdan ko‘pruk qilib o‘tub ketar ekan”.
2.	“...haligi “badbaxt” ning og‘zidan “Assalomu alaykum” chiqib qolmasunmi? – boshda “Mazaq qildiyov bu kofir!” ”	“Qahru-g‘azabidan zaminu-zamon, makinu makon titraydir”.
3.	“Ey boshi bo‘sh “dono” lar, ey qovoq kiygan dindoshlar, voy mumulmoni komillar!	Odamlar borki, mo‘ylabini burab, qornini silab , huzur va halovat deganingni ikki yamlab bir yutqani holda yana oyig‘a faloncha chervonni beliga tuflab tugadir.
4.	Yigirma besh-o‘ttuz yilni madrasa tuprog‘i yalab o‘tkargan bir kishini, tabiiy, bizda ulamo qatorig‘a kirguzmay hol yo‘q.	“Ovozi tojik”ning tilagicha adovatimiz manashu ikki yo‘sin tabiiy ravishda ho‘kizning shoxidek o‘sib chiqqandir.

Abdulla Qodiriyning hajviy to‘plamga kiruvchi “Tinch ish” hikoyasida ham hissiy-ta’sirchanlikni ta’minlovchi lisoniy vositalar ko‘p uchraydi. *“Endi bu zot ham ulamodan biri edi. O‘z ilmi tarafidan varasatul-anbiyo qatorig‘a kiritilgan uchun mertuq-sertuqlarning falon-tuganiga quloq soluvning ham luzumi yo‘q edi. Yigirma besh-o‘ttuz yilni madrasa tuprog‘i yalab o‘tkargan bir kishini, tabiiy, bizda ulamo qatorig‘a kirguzmay hol yo‘q”*²² mazkur misolda “madrasa tuprog‘ini yalamoq” iborasi muallif tomonidan o‘rinli va maqsadli foydalanilgan. Ushbu iboradan nutq vaziyatiga ko‘ra turlicha foydalanish mumkin. Bu o‘rinda domlaning lisoniy portretini aniqroq chizish maqsadida unumli foydalanilgan bo‘lib, voqeaga hajviy ruh bera boshlagan. Bu ibora 2-3 marta takrorlanishi ham ta’sirchanlikni oshirishga xizmat qilgan:

“Ham ana shu madrasa tuprog‘ini o‘ttuz yil yalab shul tuproq yalov ajrini ham olg‘an edi”.

Hajviyalarda ma’no ko‘chishning metafora, metonimiya kabi turlari bilan bir qatorda o‘xshatishlar ham faol qo‘llanilgan. Nasriy qofiya shaklida leksemalardan hajviy qiyofani yaratadi. Bu jadvalda quyidagicha ifodalash mumkin:

№	O‘xshatishlar	Nasrda hajvga asoslangan saj namunalari
1.	Sayyidim	ilma uloq
2.	tojisarim	ugra yuvuq
3.	nuktarasim	burda chuvig
4.	Malikai dodi raso	zo‘rg‘a turgan
5.	muhtashamo	kuya urgan
6.	ko‘hna kafandek	mo‘ylabini burab
7.	sufra-sochug‘dek	qornini silab

²² Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 34.

Shu o‘rinda Abdulla Qodiriyning hajviya haqidagi mulohazalariga ham munosabat bildirish lozim. Adibning ta’kidlashicha, adabiyot dunyosida ikki turlik tanqid bor; jiddiy tanqid va hajviy tanqid. Jiddiy tanqid o‘zining kuzatkan nishonasi ustida o‘zgarishlar yasasa ham ammo ko‘pincha avomga majhulroq bo‘lib o‘tadir.

Bobning uchinchi bo‘limi **“Abdulla Qodiriy hajviy asarlari leksikasida o‘zlashma so‘zlar tasnifi va tavsifi”** haqida bo‘lib, o‘zbek tilining faol leksikasida so‘zlar o‘z va o‘zlashma qatlamga bo‘linadi. Ijodkorlar tilga murojaat qilganida har ikkisidan nutq vaziyatiga ko‘ra baravar foydalanadi. Ayrimlari asosan, o‘z qatlamga doir so‘zlarni qo‘llasa, ba’zi ijodkorlar o‘zlashma qatlam so‘zlarini ishlatishga majbur bo‘ladi. Jumladan, Abdulla Qodiriy ham o‘zi o‘zbek tili jonkuyari bo‘lsa-da, beixtiyor yoki majburiy tarzda fors-tojikcha, arabcha va maxsus ruscha so‘zlardan foydalanadi. Qodiriyning ruscha so‘zlardan foydalanishi asosan, kinoyaviy xarakterdadir. Hatto ayrim ruscha so‘zlarning talaffuzi va imlosini xalq tilidani variantini qo‘llab kulguli vaziyatlarni uyushtira oladi. *“...inqilob boshlanib oq podshohimiz taxtdan tobutg‘a olinur. Birinchi martdan boshlab xalq og‘zinda “Mekalay taxtdan tushurulib yangi hukumat tuzulubdir”, degan xabarlar yuriy boshlar. Lokin bu xabarlarg‘a bizim “Oxund domla” sira ishonmaydir”*²³. Bu o‘rinda “Mekalay” xalq tilidagi talaffuz variantidir.

Muallifning romanlari matnida boshqacha manzara, ya’ni o‘zbekcha so‘zlar ko‘p, arabcha so‘zlar sezilarli darajada kam. Diniy ma’rifiy xarakterdagi matn tahlil qilinganda esa arabcha so‘zlar ko‘pligini anglash qiyin emas. So‘zlarni jadvalga joylashtirsak, quyidagi manzara hosil bo‘ladi:

1.3-jadval

№	O‘zbekcha (turkiy)	Fors-tojikcha	Arabcha	Ruscha
1.	ulus	xabar	istixroj, muloqot	s‘ezd
2.	oqcha	mardikor	mutaassib, musulmon	bolshevik
3.		mo‘y	namoz, mudarris	rabochiy
4.		ravish	kuffor, avliyo	galava
5.		ro‘za	inqilob, vojib	Nalog
6.		shubha	mal’un	Pajaliska
7.			nubuvvat	Gospodin pervoy
8.			Miftohul-jinon	Ukaz

Adib shariat mavzusida hikoya qilishni boshlasa, demak, arabcha istilohlar ko‘proq ishlatilishi aniq. *“Odamlarini uch yuz oltmish kun ro‘za, yigirma to‘rt soat namoz o‘quvchi “avliyo” deb biladir”*.

“Abdulla Qodiriy hajviyalarida ayrim mustaqil so‘z turkumlarning ayrim o‘ziga xos morfologik xususiyatlari tadqiqi” nomli ikkinchi bobning birinchi bo‘limida **“Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida qo‘llanilgan mustaqil so‘zlarning morfologik xususiyatlari”** haqida fikr yuritiladi.

²³Абдулла Қодирий. Тўла асарлар тўплами. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1995. – Б. 36.

Olmosh soʻz turkumining morfologik shakllari haqida toʻxtalganda kishilik olmoshlaridagi turlanish hodisasini alohida taʼkidlash lozim, yaʼni hozirgi adabiy til meʼyorlariga koʻra, grammatik talablar aynan kishilik olmoshlariga egalik qoʻshimchalari qoʻshilib kelmaydi, biroq Qodiriy asarlarida bunday holatni uchratish mumkin: *Lokin bu xabarlarga bizim “Oxund domla” sira ishonmaydir. Shu xabarlarni soʻylavchiga qiziqturish bilan: “Ey, sen ahmoq boʻlib qoldingmi? Oq podshohni oʻrnidan tushurub boʻlar emish?* (A.Q.) Shunday boʻlsa-da, jumladagi birinchi shaxs, koʻplik sondagi olmoshga qoʻshilib turgan -im affiksi qaratqich kelishigi vazifasida kelmoqda. Hozirgi oʻzbek tilida ham sheʼriy matnlarda bunday hol takrorlanishi mumkin: “Faqat ojiz qalamim manim. Oʻzbekiston vatanim manim” (Abdulla Oripov). Farqi shundaki, mazkur misrada birinchi shaxs, birlikdagi kishilik olmoshiga qoʻshilib kelmoqda. Koʻplik shakli hozirda qoʻllanilmaydi. Shunday boʻlsa-da, ayrim oʻrinlarda bugungi ifodaga mos qoʻllanishlar ham asarda uchraydi, demak, aralash qoʻllanilgan yoki oʻtish jarayonida boʻlgan: *Hozir bizning Oxund domlamiz nima qilur edi? Domlamizning oʻzi politikan emasmi? Ishning tubiga allaqachon tushunib, yoshlarga qarshi tashviqot dengizinda yuzar edi.* (A.Q.)

Morfologik birliklarda vaqtning taʼsiri bilan sodir boʻlgan oʻzgarishlarni quyidagicha ifoda qilish mumkin:

2.1-jadval

№	Matndagi holati	Hozirgi holati
1	Lokin bu xabarlarga bizim “Oxund domla” sira ishonmaydir.	Xabarlarga, bizning
2	Ana bunlar endi chet qironlar toʻgʻrisida bilgan siyosati.	Bular
3	Girmoniya toʻb toʻpxona, urush aslahalarini ishlaydi.	ishlaydi. Toʻgʻrirogʻi bu soʻz leksik va uslubiy jihatdan toʻgʻri kelmaydi. Hozirda: Ishlab chiqaradi.
4	Bundan soʻng siyosatga oralashmasliq	aralashmaslik
5	Ilgarirak domlamiz bu xabarlarga koʻbda ishonmasa ham keyinrak oʻyliy boshladi.	ilgariroq, keyinroq
6	Shunday qilib tinchgina imomgarchiligida davom etadir.	imomchilik, imomlik
7	Xitoy, Turkiya, Buxorolar haqqinda yetti yoshliq vaqtindan beri maʼlumoti bor.	yoshdan, yoshlik

Bobning ikkinchi boʻlimi “**Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida qoʻllanilgan leksemalarning oʻziga xos lisoniy imkoniyatlari**” haqida.

Mustaqil soʻz turkumlari nutqda asosiy vazifani bajaradi, shu sababli ularning muayyan grammatik vazifani bajarishga moslashda grammatik vositalar juda muhim oʻrin tutadi. Mustaqil soʻzlarning grammatik maʼno va muayyan vazifalar bajarishi davr nuqtai nazaridan yondashuv talabiga koʻra oʻzgarib turadi. Masalan, narsa-buyum – predmetni birlamchi hisoblab, boshqa mustaqil soʻzlarni uni izohlash va toʻldirishga yoʻnaltirishni taqozo qiluvchi yondashuv va kommunikativ nuqtai nazardan harakatni birlamchi, deb olib feʼl soʻz turkumini faollashtiruvchi

tamoyil ham mavjud. Shu ma'noda hajviy matnlarda qaysi mustaqil so'z turkumi faolroq qo'llanganini aniqlash zarur.

Sifat so'z turkumiga doir so'zlar, asosan, otlar bilan yonma-yon yuradi. Tasviriy matnlarda otlar bilan birga sifat turkumiga oid so'zlar boshqalarga qaraganda ko'proq qo'llanadi: *Ammo xon zamonlarini o'ylagan choqlarda: "Ey, xo'b zamonlar bor edi, tilla jobduqliq otlaru va basavlat beklar-u o'rdalarda har kun qarsa bazimu... O'tub ketdi endi bir zamonlar", deb afsus yeb qo'yadir. Chorlar zamoni to'g'risig'a kelganda*²⁴.

Mustaqil so'zlarning morfologik tarkibidagi o'zgarishlarni quyidagi jadvalda bayon qildik:

2.2.1-jadval

№	Ot	Sifat	Son	Olmosh	Fe'l	Ravish
1.	xonliq	orsiz	elli yil	bizim	tomoq qilmoq	vaqtsiz
2.	go'sh		miri		chinlab	
3.	jonvor go'sh		yarim qadoq		natijalandi	
4.	qo'yning gavadasi		o'ttuz quloch		kelur	
5.	etukchi		chorak qadoq		o'qimak	

Son so'z turkumiga doir so'zlar ham bor, biroq ayrimlarining talaffuzi bugungidan farq qiladi. Aytilishiga ko'ra yozilgani uchun shu holatga kelgan bo'lishi mumkin: *"Shundoq qilub, qirq yillab musulmon xonlari zamonini, elli yillab rusiya chor istibdodini va endi besh yillabdirki mehnatkashlar hokimiyatini ko'radir. Tabiiy, otam, rusiya chor hukumatini sira ham tilamaydir. Chunki uning elli yillik istibdodini o'zi istiqbol etkan, Chorning achchig'-chuchugini ko'b tatig'an. Bu kungi mehnatkashlar hokimiyatiga ham uncha do'st emas. Buning ham sababi ma'lum. Sho'rolar hukumati to'g'risida ul hech bir tushuna olmaydir. Sho'rolar hukumati haqida yuz qat istifisor qilub unutadi"*²⁵. Ellik sanoq soni talaffuzi natijasida shunday fonetik o'zgarishga uchragan bo'lishi mumkin. Matnda sonlar bilan birgalikda hisob so'zlari ham qo'llangan. Muallif foydalangan ayrim hisobni bildiruvchi so'zlar so'zlashuvda bo'lsa-da iqtisodiy muomalada mavjud emas. Masalan, miri hisob so'zi: *Oradan yo uch kun o'tadi va yo o'tmaydir. Eski turmush bilan zaharlanib qolg'an cholingiz boyag'i bir mirilikdak qilub ro'molg'a tugub berilgan tushundirishni unutadir-da, bolshevikni bir shaxs, kambag'aldan chiqg'an ulug' bir oq podshoh deb bila boshlaydir:*

– *Bolshevoying juda ham boturboy yigit ekan-da, askari ham bir-ikki lak bordir?*

²⁴ Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: "Sharq" нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2014. – Б. 558.

²⁵ Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: "Sharq" нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти, 2014. – Б. 559.

– *Ha, besh-olti lak bor!.. (A.Q.)*

Bobning uchinchi bo‘limi “**Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida qo‘llanilgan yasama so‘zlar tahlili**” haqida bo‘lib, Abdulla Qodiriy hajviyalarida -chi affiksi bilan yasalgan so‘zlar ko‘p uchraydi. Ammo bugungi kunda qo‘llanilmaydiganlari ham bor: Bir vaqtlarda atoqli bir lo‘ttichi turli lo‘ttilar (fo‘kslarni) ko‘rsatar edi. Ayniqsa, aning chigildak bir qog‘ozni og‘zig‘a solub, hech bir poyonsiz uzun qilub og‘zidan chiqaruvi bizni hayron qoldirar erdi. Lo‘ttiboz yo‘q kunlarda aning o‘rnig‘a lo‘ttichilik qilaturg‘an bir majnun bor edi.

Bugungi kunda o‘zbek tilini rivojlantirish atamalarni o‘zbekchalashtirish masalasi muhim bo‘lib turganda shaxs oti yasovchi, o‘rin-joy oti yasovchi qo‘shimchalar ustida maxsus tadqiqotlar olib borilishi kerak. Quyidagi matnda qo‘llangan so‘zlardan –chi affiksi orqali yasalgani o‘zbek tili tabiatiga mos keladi: – Kishilar-kishilar, potino-potino! Chunki lo‘ttiboz xalqni yig‘moqchi bo‘lg‘anda “Potino” degan bir ashula aytar edi. Xalq majnunning atrofig‘a quruq bir mazax uchun yig‘ilg‘anda majnun yana bir marta “Potino”sini aytub olg‘ach, cho‘nchagidan bir changal qog‘oz chiqarub, xalqg‘a ko‘rsatub chiqar edi. (Lo‘ttichi og‘zig‘a solaturg‘an chigildak qog‘ozni yalmalkan ekanlig‘in xalqdan tasdiq ettirar va og‘zini ham ochub, boshqa qog‘oz yo‘qliqni ko‘rsatar edi) (A.Q. Tanlangan asarlar). Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlardan aynan “lo‘ttichi” o‘zbek tili tabiatiga mos tarzda yasalgan. Uning sinonimi sifatida “lo‘ttiboz” ham aralash qo‘llanilganini ko‘rish mumkin.

“-boz” fors-tojikcha affiks bo‘lib bugungi kunda juda ko‘plab o‘zbekcha shaxs otlarini hosil qilishda ishtirok etmoqda. Aslida -chi affiksi faolroq qo‘llanilishi kerak, bizningcha.

Asarda Qodiriy tomonidan qo‘llangan, yasalgan, bugungi so‘zlashuv amaliyotiga kiritish uchun tavsiya qilinuvchi so‘z yasovchi qo‘shimcha va yasalmalar:

2.3-jadval

№	Amaliyotga kiritish uchun tavsiya qilinuvchi so‘z yasovchilar	Izohi
1	ixtiyorsiz	beixtiyor
2	turklik	turklik olamining miyasini aylandirgan masalalardan biri va birinchisi imlo sayosatidir.
3	kunamoq	tunamoqning zid ma’nolisi
4	etaksiz	betayin, tuturuqsiz
5	dumsiz	uyatsiz, yalang‘och
6	lo‘ttichi	Bir turli lo‘ttilar (fo‘kslarni) ko‘rsatar edi.
7	itlanish	Puanqaraning itlanishi va boshqa shuning kabi bir birisiga zid bo‘lg‘an fikrlar qatorlasha boshlar.

Fors-tojik tilidagi old qo‘shimchalar Abdulla Qodiriy hajviyalarida juda kam ishlatilgan, uning o‘rniga o‘zbekchi affikslar orqali kerakli grammatik ma’nolar ifoda qilingan.

“**Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida yordamchi so‘zlarning morfologik-stilistik xususiyatlari**” nomli uchinchi bobning birinchi bo‘limi “**Abdulla Qodiriy**

hajviy asarlarida qo'llanilgan yordamchi so'zlarning ifoda imkoniyatlari, ma'no taraqqiyoti" haqida.

Yordamchi so'zlarning morfologik shaklida o'zgarish sezilmasa ham, ularning qo'llanilish o'rinlarida muayyan nomuvofiqliklar uchraydi: *Har kimning bu "qilichdan tez, qildan nozik ko'pruk" dan o'tishi majburiydir. Kerzondan kattarog'i ham musulmonlarning ahdig'a hayron qolmasdan mumkinmi? Qurbonliq qilg'an qo'yni minasizda, pildirab o'tub ketaberasiz-da. Hamma ham rohat va saodatni yaxshi ko'radir. Boylarnikida imlama, xasislarnikida dimlama.*²⁶

Xususan, *-mi* so'roq yuklamasining qo'llanilish o'rni hozirgi adabiy til me'yorlariga mos kelmaydi.

Yordamchi so'z turkumlarining vaqt ta'sirida morfologik shakl va grammatik vazifalaridagi o'zgarishlar quyida jadval shaklida berildi:

3.1-jadval

№	Ko'makchi	Bog'lovchi	Yuklama
1	birlan	lokin	ham
	Bilan ko'makchisi bilan aralash qo'llangan.	Lekin bog'lovchisi bilan aralash qo'llangan.	(faqat yuklama vazifasida qo'llanilgan)
2	haqinda	yo'qsa	yolg'iz
	haqida ko'makchisi bilan aralash qo'llangan	mabodo, agar bog'lovchilari o'rnida qo'llangan.	(o'z davrida faqat so'zining o'rnida faol bo'lgan)

Fe'l so'z turkumiga doir fonetik, morfologik o'zgarishlar ko'p bo'lgani holda yordamchi so'zlarning ayrimlari qisman bog'lanib keluvchi so'ziga nisbatan biroz farqlanadi xolos: *Mahkamai shar'iya ochdiq, shari'ati nabiyaning ravnaqini istasangiz bizning yong'a marhamat qilingiz! — deb ro'kach uchun sodda domlalaridan bir nechalarini o'z ichlariga olibdirlarda uyalmay-suyalmay "Toshkand mahkamai shar'iyasi" degan viveskani ham Ko'koltosh madrasasiga osibdirlar. Ey uyalmag'anlar! Bu kun bo'lmasa, ertaga sirimiz ochilib sharmanda bo'lamiz deb o'ylamadingizlarmi?* (A.Q.)

Aksariyat matnlarda yordamchi so'zlar shakl jihatdan o'zgarishiga uchramaydi: *Baho ham uncha qimmat emas: bir qo'y yo ikki kishiga bir ho'kuz, vassalom... Boylarimizdan Salimsoq semiz bultur qilg'an qurbonlig'i bilan qayerda mufti a'lam bo'lsa shunga yetti tanga pul bilan yugurub turubdir. To'rtta bema'ni bir yerga yig'ilib olibdir-da otini "Mahkamai shar'iya" qo'yibdir.*(A.Q.)

Tilshunos olim A.Pardayev o'zbek tilida yordamchi so'z turkumlariga doir olib borgan tadqiqotlaridan birida "...leksik ma'no ko'makchilar uchun xos xususiyat emas. Ammo bu fikr aytilganda faqat o'zbek tilidagi sof ko'makchilar nazarda tutiladi. Funktsional ko'makchilar esa matniy xususiyatga ega. Ular bir matnda o'zlarining mavjud leksik ma'nolarini saqlagan bo'lishi, boshqa bir o'rinda esa ko'makchi vazifasini bajarayotgan bo'lishi mumkin. H.Ne'matov "mustaqil-yordamchi so'zlar" deb nomlagan oraliq so'zlarning mavjudligi va ularning ko'makchi vazifasini bajarishi bu birliklardagi leksik va grammatik ma'nolarning

²⁶ Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: "Sharq" нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б. 707.

bir-birlariga bog‘liq ekanligidan dalolat beradi”²⁷, – deya o‘rinli va to‘g‘ri ta’kidlagan. Biroq Abdulla Qodiriyning hajviy asarlari tahlilida sof ko‘makchilardan faol foydalanilgani kuzatilsada vazifadosh ko‘makchilar deyarli uchramadi.

Bog‘lovchi va yuklama vazifasini birdek bajaradigan “ham” yordamchi so‘zining turli o‘rinlarda, so‘zlarni va gaplarni bog‘lab kelgani tahlillarda ma’lum bo‘ldi, ammo aksariyat hollarda yuklama vazifasida bo‘lib, uning bog‘lovchilik vazifasi kuzatilmadi: *Xilvat kunlari ham yaqinlashdi. Ko‘rpa yostiqni sotib bo‘lsa ham ba’zi sovuq so‘filar Turkiston yo‘lini – Sultonul-orifin² qabrini ko‘zlay boshladilar. Faqiringiz ham tariqat ishlaridan uncha beparvo emasman. To‘qson tushub dahaga kirish masalasi chiqg‘ach, faqirning ko‘z o‘ngida yog‘liq xasib, qizil palov, achchig‘ somsa, zahardek choy gavalana boshlaydir*²⁸. Ajratib ko‘rsatilgan uch o‘rindagi “ham” yordamchisi, bizningcha, yuklama vazifasida qo‘llanib turibdi. Aslida mazkur xulosani hajviy muallifning asarlari matni asosida tasdiqlash imkoniyati katta, chunki yordamchi so‘zlardan eng ko‘p qo‘llangan bu – “ham” yuklamasidir. Quyidagi misollar ham fikrimizni ma’lum darajada asoslashga xizmat qiladi: *Bultur o‘zimizning Hazrat eshon ham Miyon buzrukning raqobatiga “daqa” o‘lturishni odat qilub ko‘rgan edilar, natija juda yaxshi chiqdi.* (A.Q.)

Bobning ikkinchi bo‘limi “**Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida qo‘llangan yordamchi so‘z turkumlarining hozirgi adabiy til me‘yorlariga munosabati**”, – deb nomlanadi. Badiiy adabiyotda *bilan* ko‘makchisi ba‘zan *birlan, birla, bila, -ila, -la* shakllarida qo‘llanadi²⁹. *Anov madaniy millatlar qatorida biz ham yangi yilga tilak bilan kiramiz emish! Devonaxoningizning bir tilagim bor edi-ki, endi ul ham bo‘ldi. Ya’ni o‘sha o‘roq bilan bolg‘ayu bir tutam boshqni qog‘oz-da emas, ana shunaqangi boshi toshdan bo‘lg‘an narsaning ustida ko‘rgim kelar edi. Shukur, o‘zim ushlay olmasam-da, og‘a-inilarning qo‘llarida ko‘rdim; og‘a-inilarning boshlari omon bo‘lsa shunaqangi ko‘rsatib yuraberarlar-ku, axir! Nima, man ularning tangasini yeb qo‘yamanmi?*³⁰

Matnda *bilan* ko‘makchisi har doim ham vosita yoki birgalik ma’nosida qo‘llanavermaydi. Ba‘zan o‘zidan oldingi so‘z bilan birga holatni ham ifodalashga xizmat qiladi: *Kashmiri qur’a toshlarini yig‘ib olib ro‘mol ustiga chochdi, toshlarni yettiga bo‘lib yetti joyg‘a qo‘ydi va mulohaza bilan so‘zlay boshladi: Xalqingizning oshig‘i olchi, pichog‘ingiz moy ustida; xalqingiz rost ko‘chani qo‘yib past ko‘chadan yurar ekan, ko‘plaringiz eshakka teskari minib chirmanda chalar ekansiz.*

Asarda qo‘llanilgan yordamchi so‘zlarning bugungi til qoidalariga mosligi va grammatik vazifalardagi mutanosiblik darajasini aniqlash uchun jadval shaklida bayon qilindi:

²⁷ Пардаев А. <http://library.ziyounet.uz/ru/book/download/32699>

²⁸ Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: “Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б. 92.

²⁹ Шоабдурахмонов Ш., Аскарлова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўқитувчи, 1980. – Б. 161-162.

³⁰ Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: “Sharq” нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти. 2014. – Б. 588.

№	Ko'makchi	Bog'lovchi	Yuklama
1.	bilan	-na-na	ham
	Bu ko'makchi hozirgi zamon o'zbek tilida qanday grammatik vazifalarni bajaryotan bo'lsa, unga aynan mos keladi.	Asosan bog'lovchi vazifasida qo'llangan. Matnda yuklama sifatida uchramadi.	O'rganilgan hajviy asarlarda faqat yuklama vazifasini bajargan. Bog'lovchi sifatida uchramadi.

Yoki teng bog'lovchi vazifasida ham qo'llanib kelishi mumkin. Quyidagi kontekstda bilan ko'makchisining birdan oriq ma'noda ifodalanishiga guvoh bo'lish mumkin: *Ko'kcha dahasi bilan Beshyog'och dahalarining oralaridag'i siyosiy munosabat qutulmagan joyda buzilib ketib san-manga borishib qoldilar. Bu buzilishning ibtidosi Ko'kchanning Chig'atoyi bilan Beshyog'ochning Chaqaridan it urushdirish masalasidan chiqdi. Bu voqeaga har ikki tarafdin o'n minglab kishi tantana va dabdaba bilan ishtirok qilib urushdirish marosimi maxsus duolar bilan boshlandi. Garchi urush maydonlarida bo'lish xayfli bo'lsa ham na choraki, to'g'ri xabar olmoq uchun muhoraba ustida hozir bo'lmoqqa majbur edim.*

Matnda ajratib ko'rsatilgan ko'makchilarning dastlabki ikkitasi bir xil vaziyatda, ya'ni teng bog'lovchi ma'nosida, uchinchi o'rinda esa vosita ma'nosida qo'llangan.

Hajviy asarlar matnida birgalik ma'nosini ifodalovchi ko'makchi nisbatan ko'proq qo'llangan: *"Otang nechchilik-bo'zchilik, sanga kim qo'yubdir bu noma'qulchilik?!" degandek, o'zimizning bitta-yu uch chorak ibtidoiy maktablarimiz, bo'qcha-yu yelcha o'rta maktablarimiz, botmon-u daxsar siyosiy unlarimiz, "tana-manasi" bilan muncha muqarrirlarimiz bilan go'yo madaniy millatlar qatorig'a kirib qoldik-da, bizga endi yangi-yangi yilga tilak bilan kirish ishi ko'ndalang keldi!* (A.Q.) Matnda ko'makchi bilan birga kuchaytiruv ta'kid yuklamalari ham qo'llanigan bo'lib, o'zlarining doimiy morfologik vazifasini bajarib kelgan.

Bobning uchinchi bo'limi **"Abdulla Qodiriy hajviy asarlari ta'sirchanligini oshiruvchi alohida olingan so'zlarning uslubiy xususiyatlari"** haqida. Abdulla Qodiriyning "Tanlangan asarlari"dan olingan hajviy hikoya va felyetonlarida modal so'zlardan ham foydalanilgan. Aytish lozimki, muallif bu borada ham o'ziga xos tarzda yondashgan:

To'g'ri, sadag'a, – dedim. (Bu o'rinda to'g'ri so'zi vazifadosh modal so'z bo'lib kelgan)

Durust, O'ktamxonning Toshkand kelganiga endi ancha yillar bo'ldi, uning bazmini, husnini ko'rmagan Toshkand mehmonxonasi endi, ehtimol, sira qolmag'andir. (Gapda durust va ehtimol so'zlari munosabatni ifodalab kelmoqda.)

Tuzuk, Xofizko'yki mahallasidagi keyingi janjallar bilan ishning usti bir oz ochilub ketkandek ham bo'ldi, sho'x baytal masalasi hatto mehrob janjallarig'a ham aylanib ketdi. (tuzuk so'zi o'z ma'nosidan tashqari ko'pincha, modal ma'nolarni ifodalashga xizmat qiladi.)

Voqi'an, dard bo'lmasa, ishq bo'lmasa odamning kesakdan nima farqi bo'lsin-u, eshakdan nima ayirmasi! (Mazkur ajratib ko'rsatilgan so'z kirish so'z vazifasida kelmoqda.)

G'arb ishchisi Sharq ishchisiga, Sharq ishchisi G'arb ishchisiga salom yuboradir. **Demak**, bu kun butun dunyodagi ishchilarga samimiylilik xissini qo'zg'atadir. Bu kun butun dunyo och-yalang'ochi bayram etadir, ham bugun kuch-quvvatlari bilan kapitalga qarshi kurashish uchun so'z biriktiradir. (Xulosa ma'nosida muntazam qo'llaniluvchi modal so'z.)

Har kimning o'ziga yarasha qo'rqaturg'an narsasi bo'ladir. "Ishtonsizning cho'pdan hadugi bor", degandek, shu vaqtda ishtonlik inson – haduksiz odam ehtimol yo'qdir. Turkiston statistika idorasining keyingi yiqg'an hisobiga qarag'anda, ishtonsizlar bana'ji ko'payibdirilarki, biz ularni aynan quyida ko'chiramiz. (Bu o'rinda ehtimol gumonni ifodalagan.)

Boy va sovdagarlar – ayniqsa, bularning qo'rqunchlari poyonsizdir...

Har holda, bu durkum xalq uchun yer ham ko'rqunch, ko'k ham qo'rqunch. Faqat qoro yerning ostig'ina tinchdir!

Tuzuk, tuzuk, ko'b yaxshi. Bolshevoying odamoxun ekan, sarbozdan kel, sarbozdan. O'zimizdan sarbozlar bormi?

Afsus, yoz o'tib nog'ora, chirmanda bilan bo'ladurg'an bazmning vaqti ketib boradir. Endi tor mehmonxonalarda dutor, tanbur bilan bazm qilish qanday ko'ngilsiz...

Demak, Turkiston matbuotining joni chiqdi. Pichoq tegmay turub qoni chiqdi. Hozirgi kunning yangi xabarlaridan bittasi Maskovda ochilg'on Butun Rusiya qishloq xo'jalik astafkasidir³¹.

Tahlil manbasi sifatida olingan hajviy asarlarda qanday modal, taqlid va undov so'zlardan foydalanilganligini aniq bilish uchun uni jadval shaklida ifodalash lozim:

3.3-jadval

№	Modal so'zlar	Taqlid so'zlar	Undov so'zlar
1	to'g'ri	<i>Taraqqa-turuqqa</i>	E, eh, ey
2	durust	"g'ov-v-v-v, g'uv-v-v,"	Ha, hoy, hay
3	tuzuk	<i>jiring'-jiring'</i>	Xo'sh,uf, ehe
4	afsus	<i>shaldir-shuldir</i>	Salom, xayr
5	har holda	<i>dir-dir</i>	Olha, tovba, balli
6	ayniqsa	<i>ship-ship</i>	Qani, barakalla
7	ehtimolki	<i>shir-shir</i>	YOr-yor

Abdulla Qodiriy undov so'zlarning aksariyat turlaridan foydalangan holda his-hayajon undovlariga kamroq murojaat qilganligi matn tahlilidan sezilib turibdi. Muallif maqsadi va maslagiga ko'ra, asosan, xitob, haydash-chaqiriq undovlari ishtirok etgan matnlar ko'p:

Ey, gaping qursun...Shoshma-shoshma, tentak, palovning moyi tegida!

³¹ Абдулла Қодирий. Танланган асарлар тўплами. – Тошкент: "Sharq" нашриёт – матбаа акциядорлик компанияси бош тахририяти. 2014. – Б. 618.

Xayr, shu bilan muboraza'i hayot, tanozi'i baqo gaplariga tushungan o'zimizning o'shanaqangi domlalar bo'lsa o'g'ullarini, bo'lmasa o'zlarini olti oyliq kurslarg'a urub, bot fursatda yangi maktablarning sarkardaligiga ham yetishkan edilar. (A.Q.)

Yordamchi so'zlar, undov, taqlid va modal so'zlaning morfologik jihatdan turli davrlarda o'ziga xos tarzda takomillashib kelgani, ma'nodoshlari miqdorining keyingi yillarda oshib borgani hajviy matnlar tahlilida yaqqol sezildi. Mazkur grammatik vositalar matnga ko'pincha uslubiy jihatdan ta'sir ko'rsata olishini inobatga olinsa, ularning morfologik ko'rsatkich sifatida shakldoshlik hosil qilib qolishi ham texnik, ham lisoniy jihatdan murakkabliklar hosil qilishi mumkin. Turli uslubda yozilgan tarixiy manbalarni tahlil qilib, grammatik ko'rsatkichlar o'rtasidagi omonimlikning sabablarini o'rganish lozim.

XULOSA

1. Turli uslubga doir matnlarni tahlil qilish orqali o'zbek tilining morfologik tuzilishi takomillashtirish zarur, ayniqsa, turli davrlarga oid manbalarni bosqichma-bosqich o'rganib, grammatik vositalarning shakllanish jarayonlarini chuqur o'rganish milliy grammatikaning mukammallashishiga yordam beradi.

2. Muallifning nafaqat sermazmun va dolzarb mavzularga bag'ishlangan hajviyalari, balki uning qo'llagan taxalluslari ham o'quvchida ma'lum darajada kulgu uyg'otadi, qolaversa, katta ramziy ma'no ham kasb etadi. Uning "Kalvak", "Dumbul", "Ovsar", "Tajang" kabi taxalluslari asli sifat turkumiga doir so'zlar bo'lsa-da, ijodkorning mahorati tufayli ot so'z turkumiga o'ziga xos tarzda ko'chib o'tmoqda. Bu leksemalar nomlash vazifasi bilan birga baribir belgi, xususiyatni ifodalamoqda. Bu ham Abdulla Qodiriyning o'zbek tili taraqqiyotiga qo'shgan hissasi.

3. Abdulla Qodiriy hajviy asarlarida boshqa ma'no ko'chish turlari bilan baravar kinoyalar ham qo'llanilgan. Ko'chma ma'noning mazkur turi unchalik faol bo'lmasa-da, asosan, satirik, yumoristik matnlarda ko'p ishlatilishi ma'lum bo'ldi. Kinoya – hajviy asarlarning asosiy ifoda vositasi sifatida muallifning, so'zlovchining voqelikka real munosabatini yashirin tarzda ifodalash imkonini beradi, bu – muloqotning samarali bo'lishini ham ta'minlaydi.

4. Matn muallifining boshqa asarlariga nisbatan hajviy asarlarida o'zlashma so'zlardan ko'proq foydalangani ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, ruscha so'zlardan muallif ataylab, zarur o'rinlarda maxsus foydalangani sezilib turibdi. O'z davrida insonlarning tilga, dinga, e'tiqodga bo'lgan munosabatlarini ro'y-rost ko'rsatish maqsadida, hatto aksariyat o'zlashma so'zlarning xalq tilidagi talaffuz variantlarini qo'llagan. Bu bilan asar qahramonining aniq lisoniy, ma'naviy portretini chizib bera olgan.

5. Tilimizda grammatik ma'noni ifodalovchi lisoniy birliklar forscha va arabcha so'zlar bilan aralash qo'llaniladi. Bugun milliy tilimizning mavqeini oshirish zarur bo'lib turgan bir davrda o'zbek tilining tabiatiga mos bo'lgan morfologik vositalarni tanlash va muomalaga kiritish lozim.

6. Faol qo‘llaniladigan fe‘lning grammatik ma‘nolarini ifodalovchi birliklar, xususan, vazifadosh shakllarning o‘ziga xos ifoda imkoniyatlarini chuqurroq o‘rganish bugun grammatik vositalarda ko‘p uchrayotgan omonimlikni qisman bartaraf qilish imkonini beradi. Buning natijasida korpus lingvistikasidagi affikslar omonimligi bilan bog‘liq muammolar ma‘lum ma‘noda o‘z yechimini topadi.

7. Fe‘lning harakat nomi deb atalgan lingvistik terminini boshqacha nomlashga doir bildirilgan takliflar tadqiqotchilarning chalg‘ishiga, natijada til ta‘limida ham muayyan metodik muammolarni kelib chiqishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun harakat nomini hosil qiluvchi *-sh, -ish, -v, -uv, -moq, -mak* qo‘shimchalarining asosga qo‘shilishi natijasida keyinchalik otga o‘tish hodisalarini farqlab beruvchi tadqiqotlar amalga oshirilishi lozim, bu borada yaqin o‘tmishda yaratilgan badiiy, ilmiy va boshqa uslubdagi matnlar morfologik jihatdan tadqiq qilinishi lozim.

8. Hajviy, badiiy matnlar orqali tilning asosini tashkil etuvchi mustaqil so‘z turkumlarining bir asr oldingi va hozirgi morfologik holatidagi o‘zgarishlarni o‘rganish mumkin. Buning natijasida so‘zlarni turkumlarga tasniflash, grammatik vositalarning tegishlilikini aniqlash, ayrim so‘zlar tarixan qanday grammatik, leksik ma‘noga xizmat qilganligi haqida zarur xulosalarga kelish mumkin.

9. Abdulla Qodiriy asarlarida *lo‘ttichi, dumsiz, etikchi* kabi bir qancha yasama so‘zlar qo‘llanganligi ijodkorning tilimiz sofligini ta‘minlashga uringanini ko‘rsatadi va milliy tilni asrash uchun shunday badiiy asarlarning yaratilganligi uni dalillashga xizmat qiladi. Bugun ham yozuvchining asarlarini chuqur o‘rganib, uning so‘z yasash usullarini o‘zlashtirgan holda sof o‘zbekcha so‘zlar hosil qilish mumkin.

10. Tanlangan matnlarda qo‘llangan yordamchi so‘zlarning aksariyati yillar davomida o‘zining morfologik xususiyatini, shaklini o‘zgartirmagan. Ayrim ko‘makchilargina (birlan – bilan; haqinda – haqida) muayyan fonetik o‘zgarishga uchragan. Mazkur matnlarda yordamchi so‘zlarning ifodalanishini kuzatib, shunday xulosaga kelish mumkinki, jadidlar davri asarlari o‘zbek tili morfologik birliklarining mumtoz davrdan zamonaviy shaklga o‘tishda ko‘prik vazifasini o‘taganini ko‘rsatmoqda.

11. Tadqiqot uchun olingan matn hajviy mavzuda bo‘lganligi uchun alohida olingan so‘zlar guruhidan undov so‘zlar ko‘proq qo‘llanilganligi ma‘lum bo‘ldi. Shuni alohida ta‘kidlash joizki, his-hayajon va buyruq xitob undovlari hech o‘zgarishsiz bugungi kungacha yetib kelgan deyish mumkin. Ammo urf-odatga aylangan ayrim undov so‘zlar bugungi iste‘molga yetib kelmagan. Ularni foydalanish uchun tavsiya qilish lozim.

12. Barcha grammatik vositalar, yordamchi so‘zlar, undov, taqlid va modal so‘zlarning morfologik jihatdan turli davrlarda o‘ziga xos tarzda takomillashganligi, ma‘nodoshlari miqdorining keyingi yillarda oshib borgan hajviy matnlar tahlilida yaqqol sezildi. Mazkur grammatik vositalar matnga ko‘pincha uslubiy jihatdan ta‘sir ko‘rsata olishi inobatga olinsa, ularning morfologik ko‘rsatkichi sifatida

shakldoshlik hodisasi ham texnik, ham lisoniy jihatdan murakkabliklarni hosil qilishi aniqlandi. Turli uslubda yozilgan tarixiy manbalarni tahlil qilib, grammatik ko'rsatkichlar o'rtasidagi omonimlikning sabablarini aniqlash zaruriyatini yuzaga keltirdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2021. Fil.70.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ**

**КАРШИНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
НАВОЙСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

ПАРДАЕВА МАДИХАБОНУ ХАКИМОВНА

**ЛЕКСИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКА
САТИРИЧЕСКИХ ПРОИЗВЕДЕНИЙ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ**

10.00.01 – Узбекский язык

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ФИЛОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Карши – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей Аттестационной Комиссии за № В2020.4.PhD/Fil787.

Диссертация выполнена в Навоийском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.qarshidu.uz) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Эрназарова Манзура Сапарбоевна доктор филологических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Пардаев Азамат Бахронович доктор филологических наук, профессор Абузалова Мехринисо Кадировна доктор филологических наук, профессор
Ведущая организация:	Термезский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2021. Fil.70.01 по присуждению ученых степеней при Каршинском государственном университете «___» _____ 2023 года в _____ час (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел. (0375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.). Каршинский государственный университет, 2-корпус, кабинет №202.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского государственного университета (зарегистрирована за № ____). (Адрес: 180103, город Карши, улица Кучабог, 17. Тел. (0375) 225-34-13; факс: (0375) 221-00-56; e-mail: qarshidu@mail.uz.).

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2023 года
(Реестр протокола рассылки № ___ от «___» _____ 2023 года).

Г.Х.Эрназарова
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.н., профессор

Н.Э.Юлдошева
Ученый секретарь Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.ф.н. (DSc)

Х.Жабборов
Председатель Научного семинара
при Научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.ф.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистике активно используются различные традиционные и нетрадиционные, современные методы исследования языка. В настоящее время преобладает изучение языка с системной, прагматической, лингвокультурологической и лингвопоэтической точек зрения. Тем не менее, каждый язык требует глубокого анализа в соответствии с его необходимостью исследования. Не будет ошибкой сказать, что узбекский язык утратил многие свои черты под влиянием русского языка. На морфологию, синтаксис и даже терминологию узбекского языка повлиял русский язык. Ряд лингвистических исследований, проведенных в последние годы, был направлен на выявление уникальных особенностей узбекского языка, однако углубленное изучение лексико-морфологических и грамматических особенностей языка художественных произведений является одним из наиболее актуальных вопросов.

В мире существует множество исследований природы языка посредством лингвистических исследований художественных текстов, ведь любой язык раскрывает все свои возможности и грани значения в художественных текстах. Лингвистическое исследование произведений, созданных в начале XX века, дает информацию о состоянии языков в то время и развитии значения. Постепенное развитие любого языка находит отражение в художественных произведениях, в частности, в прозаических текстах. В последние годы в языкознании тексты широко изучаются с когнитивно-прагматической, стилистической, лингво-прагматической и социолингвистической точек зрения. Наряду с этим, важно исследовать художественные тексты в лингвистическом аспекте, с точки зрения возможностей грамматических единиц в контексте.

В узбекском языкознании широко исследуются лингвистические возможности грамматических средств в прозаических текстах. В частности, наряду с тем, что Абдулла Кадыри является основателем узбекского национального романа, его сатирические произведения также являются прозаическими произведениями с уникальными лексико-морфологическими особенностями. Естественно, что языковые единицы, используемые в тексте произведений Кадыри, отличаются друг от друга. Из диапазона значений лексем для каждого произведения выбираются разные слова и художественные средства, известно, что в сатирических произведениях используется больше отрицательно окрашенных слов. Фразеологические сочетания имеют также значение создания у учащегося настроения смеха, иронии, насмешки. Отличительной особенностью таких произведений является то, что в них используются лексические единицы, активные во взаимодействии, свойственные национальному языку. Единицы, используемые в общении, существенно различаются фонетически, морфологически и синтаксически. Морфологическая характеристика текстов прозаических произведений джадидского периода

изучена недостаточно, развитие уникального значения фонетических, морфологических, синтаксических единиц узбекского языка в сатирическом тексте не изучено как отдельный объект исследований. Абдулла Кадыри – писатель, внесший своими произведениями большой вклад не только в узбекскую литературу, журналистику, но и в усовершенствование грамматики узбекского языка. В этом смысле актуальным является исследование произведений писателя, созданных в сатирическом духе, в лексико-морфологическом аспекте.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, намеченных в Указах и Постановлениях Президента Республики Узбекистан: Указ Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2016 года № УП-4797 «О создании Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», Указ Президента Республики Узбекистан от 16 февраля 2017 года № УП-4958 «О дальнейшем совершенствовании системы послевузовского образования», Постановление Президента Республики Узбекистан от 20 апреля 2017 года № ПП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», Постановление Президента Республики Узбекистан от 4 октября 2019 года № ПП-4479 «О широком праздновании тридцатилетия принятия Закона Республики Узбекистан «О государственном языке», Указ Президента Республики Узбекистан от 21 октября 2019 года № УП-5850 «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Указ Президента Республики Узбекистан от 20 октября 2020 года № УП-6084 «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», Указ Президента Республики Узбекистан от 6 ноября 2020 года № УП-6108 «О мерах по развитию сфер образования и воспитания, и науки в новый период развития Узбекистана», а также в других нормативно-правовых документах Республики Узбекистан, касающихся данной сферы деятельности.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Социально-правовое, экономическое, культурно-духовное и образовательное развитие информационного общества и демократического государства, развитие инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. В последние годы особое внимание уделяется научному рассмотрению языковых единиц в стилистическом¹,

¹Шомаксудов А. Мукикий сатираларининг тили. – Тошкент, 1970. Кўчқортоев И. Абдулла Қаҳҳорнинг фразеологик новаторлиги: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1975. Юлдашев Б. Язык и стиль произведений Саида Ахмада: автореф. дисс....канд.филол.наук. – Ташкент, 1979. Абдиев Э. Язык и стиль драм Камила Яшина: автореф. дисс....канд.филол.наук. – Тошкент, 1982. Чориев Т. Садриддин Айний публицистик асарларининг тили ва услуби (лексика ва фразеология): филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Самарканд, 2001. Боймирзаева С.У. Ойбек прозасининг лингвостилистик тадқиқи: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Самарканд, 2004. Чориева З. Абдулла Қодирийнинг “Ўткан кунлар” романидаги мактубларнинг луғавий-маъновий ва услубий хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006. Нормуродов Р. Шукур Холмирзаев асарларининг тил хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000 ва б. Кўчқорова М.

лингвопоэтическом² и когнитивно-прагматическом аспектах, лингвистике текста, в частности, исследованию реализации языковых возможностей в художественных текстах³. В частности, в работах таких ученых, как Т.Джумаев, З.Холманова, Р.Нормуродов, Ю.Сайидов, Ф.Бабаджанов, С.Боймирзаева, М.Тожибоев, А.Халиков, А.Хасанов, С.Нормаматов, С.Махсумхонов, С.Махсумова⁴, Х.Хамраева, Н.Казакова, У.Кобиллов, Ф.Махмудова⁵ и других по анализу художественных и публицистических текстов обсуждены научно-

Абдулла Қаҳҳор адабий-танқидий публицистикасининг мавзувий таснифи // Ўзбек тили ва адабиёти, 2009. – № 2.

² Махмудов Н. Абдулла Қаҳҳор ҳикояларининг лингвопоэтикасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. 1987. – № 4. Мухаммаджонова Г. 80-йиллар охири ва 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2004. Хамидов З. Лексико-семантическое и лингвопоэтическое исследование языка «Лисан ат-тайр». – Ташкент, 1982. Йўлдошев М.М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000.

³ Гореликова М.И., Магомедова Д.М. Лингвистический анализ художественного текста. – М.: Русский язык, 1989. – 151 с. Новиков Л.А. Художественный текст и его анализ. – М.: Русский язык, 1988. Назарова О. О языке произведений Хамзы Хақимзаде Ниязи: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1944. Раҳматуллаева М. К вопросу изучения синонимов в языке Алишер Навои: автореф. дисс....канд.филол.наук. – Ташкент, 1965. Рустамов А. Алишер Навоий асарлари тилининг фонетик ва морфологик хусусиятлари: филол.фан.докт. ...дисс. – Тошкент, 1969. Самадов К. Некоторые вопросы языкового мастерства Айбека: автореф. дисс.канд. филол.наук. – Ташкент, 1967. Бафоев Б. Сложные существительные в лирике Алишера Навои: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Тошкент, 1968. Шомаксудов А. Муқимий сатираларининг тили. – Тошкент, 1970. Чарыев Б. Некоторые вопросы лексики поэзии Г.Гуляма: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1972. Каримов А. Лексико-семантические и стилистические особенности языка поэмы «Фархад и Ширин»: автореф. дисс.канд.филол.наук. – Ташкент, 1973. Ярыев Б. Язык поэзии Максуда Шайхзаде: автореф. дисс. канд.филол.наук. – Тошкент, 1979. Каримов С. Язык и стиль произведений Зулфии: автореф. дисс.канд. филол.наук. – Тошкент, 1983. Аширбоев С. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: филол.фан.докт. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1990. Абулхайров М. “Девони Мунис” тилининг лексик қатламлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 1996. Йўлдошев М. Чўлпоннинг бадиий тил маҳорати: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. Азимов И. Алишер Навоийнинг насрий асарларидаги содда гапларнинг таркибий ва маъно хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2000. Сайидов Ё. Фитрат бадиий асарлари лексикаси: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2001. Раҳматов М. Алишер Навоийнинг насрий асарларида чун боғловчили гапларнинг синтактик хусусиятлари: филол.фан.номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2006 ва б.

⁴ Махсумхонов С. Абдулла Қодирий ижодида ҳажвий характер муаммоси: (кичик насрий асарлари мисолида): дис. филология фан. номзоди. – Тошкент, 1997. – 156 б.

